

MAQSUD SHAYXZODA – JADIDLAR DAVOMCHISI

Rafiyeva Ruxshona To'liqinova

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Maqsud Shayxzoda ijodi jadidchilik harakati an'analari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Unda adibning ma'rifatparvarlik ruhini davom ettirgani, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va inson erki g'oyalarini ilgari surgani yoritiladi. Shuningdek, Shayxzodaning adabiyotga ijtimoiy mas'uliyat nuqtayi nazaridan yondashgani, jadidlar boshlab bergan ma'naviy uyg'onish yo'lini yangi davr sharoitida davom ettirgani asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Maqsud Shayxzoda, Edhem Fayziy, musovotchilik, jadidchilik harakati, ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, drama, milliy o'zlik.*

Аннотация: *В данной статье творчество Максуда Шейхзаде рассматривается в связи с традициями джадидского движения. Освещается, как писатель продолжил просветительский дух, выдвигал идеи национального самосознания, возрождения исторической памяти и свободы личности. Также обосновывается, что Шейхзаде подходил к литературе с позиции социальной ответственности и в новых исторических условиях продолжил путь духовного пробуждения, начатый джадидами.*

Ключевые слова: *Максуд Шейхзаде, Эдhem Фейзи, мусаватизм, джадидское движение, просветительство, национальное возрождение, драма, национальная идентичность.*

Abstract: *This article analyzes the works of Maksud Sheikzade a in connection with the traditions of the Jadid movement. It highlights how the writer continued the spirit of enlightenment, promoting the ideas of national identity, restoration of historical memory, and human freedom. The study also substantiates that Sheikhzade approached literature from the perspective of social responsibility and, under new historical conditions, carried forward the path of spiritual awakening initiated by the Jadids.*

Keywords: *Maksud Sheikzade, Edhem Fayziy, Musavatism, Jadid movement, enlightenment, national revival, drama, national identity.*

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg'onish tarixida muhim bosqich hisoblanadi. Jadidlar jamiyatni ma'rifat, zamonaviy ta'lim va adabiyot orqali isloh etishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy, Munavvarqori

Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev (Ubaydulla Xo'jayev), Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov, Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda, Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov, Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov kabi Turkistonda jadidchilik harakati asoschilarining g'oyalari keyingi avlod ijodkorlari faoliyatida turli shakllarda davom etdi. Ularning asosiy maqsadi Turkiston xalqini ilmsizlik, diniy xurofot va qoloqlikdan ozod qilib, ma'rifatli jamiyat qurish, mustamlakachilik kishanlarini uzib, milliy mustaqillikka erishish va demokratik islohotlar orqali taraqqiy etgan davlat barpo etish edi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Maqsud Shayxzoda ijodi jadidchilik an'analarning adabiy-ma'naviy davomchisi sifatida ilmiy tahlil etishga loyiqdir.

Maqsud Ma'sumbekovich Shayxzoda 1908-yilning 7-noyabr sanasida Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tavallud topdi. Uning otasi Ma'sumbek Shixliyev el orasida hurmat qozongan, obro'li shifokor edi. U san'at va adabiyotga mehr qo'ygan, tarix hamda falsafaga qiziqqanligi bois Oqtoshdagi ziyolilar ishtirokida turli adabiy suhbatlar tashkil etardi. Ana shu suhbatlarda jaji Shayxzoda ilk bor Nizomiy, Firdavsiy, Navoiy, Fuzuliy, Pushkin va Shekspir kabi buyuk ijodkorlar nomini eshitadi. Shu ma'naviy muhit unda adabiyotga nisbatan chuqur muhabbat uyg'otadi.

Maqsud Shayxzoda Oqtoshdagi boshlang'ich maktabni tamomlagach, 1921-yilda Boku dori mualliminiga o'qishga kiradi. Ta'limni tugatgach, 1925-yili Maqsud Shayxzoda Bo'ynoq shahriga kelib, "Maorif yo'li" jurnalini nashr eta boshlagan Edhem Fayziy bilan tanishadi. Bu vaqtda Shayxzoda "Yangi dunyo" jurnalida tarjimon sifatida faoliyat yuritadi. Shu davrda u bolsheviklar siyosatini tanqidiy ruhda baholagan Edhem Fayziyning ta'sir doirasiga kiradi.

Edhem Fayziy "Milliy firqa" partiyasiga aloqador bo'lib, "Millat" gazetasi va "Yangi dunyo" jurnaliga muharrirlik qilgan, shuningdek, Qrimda Fevral inqilobidan keyin tashkil etilgan Milliy bankda ishlagan. Shu sababli u GPU nazorati ostida yashagan. 1923-yilda Musa Begiyevning xalqaro musulmonlar kongressiga borishi bilan bog'liq masalada Fayziyning ishtiroki ham maxsus xizmatlar e'tiborini yanada kuchaytiradi. Natijada uning atrofida gilar, jumladan, Maqsud Shayxzoda ham kuzatuv ostiga olinadi.

Maqsud Shayxzoda do'stlari Tavfiq Jalol va Selim Fitrat bilan suhbatlarda Ozarboyjonning mustamlaka holatiga tushib qolganini, sovet siyosatining milliy manfaatlarga zid jihatlari haqida shunday deydi: "Ozarbayjon hozir ruslarning mustamlakasi bo'lib qoldi. Sho'ro muxtor jumhuriyati qazib olinayotgan neftning aqalli 10 foiziga ham ega emas. Sho'ro hokimiyati Ozarbayjonning Turkiyadan o'zi xohlagan adabiyotni sotib olishiga,

bizning dolzarb masalalar bo'yicha matbuotda erkin chiqishimizga ruxsat bermaydi. Agar Ozarbayjonda musovotchilar hokimiyati o'rnatilganida biz anchagina ilgarilab ketgan bo'lardik. Biz o'z faoliyatimizni VLKSM(Butunittifoq leninchi kommunistik yoshlar soyuzi, rus. Vsesoyuzniy leninskiy kommunisticheskiy soyuz molodyoji)ga kirish yo'li bilan olib bormoqchi bo'lgan edik, ammo bizni bu tashkilotdan millatchi deb haydab chiqarishdi..." Shayxzodaning ushbu so'zlari uning qay darajada millat fidoyisi ekanini ko'rsatadi.

1927-yili Shayxzoda Bokuga borib, Istanbulda chop etilgan "Yangi Kavkaz" jurnalining sonlarini olib keladi. U Ozarboyjonning mustamlakaga aylangani va Dog'istonning ruslashib borayotganidan tashvishda ekanini yashirmaydi. Bo'ynoqdagi harbiy garnizon tarkibi bilan qiziqishi ham unga nisbatan shubhani kuchaytiradi. Natijada 1927-yil iyun-iyul oylarida Shayxzoda Edhem Fayziy bilan birga "aksilinqilobiy targ'ibot"da ayblanib hibsga olinadi. 1927-yil 6 dekabrda Maxachqal'adagi sud qarori bilan ular OGPU(Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi) ixtiyoridagi siyosiy qurilishga yuboriladi.

Shayxzoda o'ziga qo'yilgan ayblarni tasdiqlovchi biror dalil yo'qligini ta'kidlab, ishni qayta ko'rib chiqishni so'rab tegishli idoralarga bir necha bor ariza yozadi. Shundan so'ng OGPU huzuridagi Maxsus kengash Bo'ynoq muallimlari ishini qayta ko'rib chiqadi. Natijada Edhem Fayziy 3 yil muddatni konslagerda o'tashga hukm qilinadi, Maqsud Shayxzoda esa 3 yil surgunga yuboriladi.

Hukmga ko'ra, Shayxzoda sobiq Ittifoq hududidagi Moskva, Leningrad, Tbilisi va Bokudan tashqari istalgan shaharda surgun muddatini o'tashi mumkin edi.

Onasi Fotimaxonim maslahatiga ko'ra Maqsud Shayxzoda Toshkentga kelishga qaror qiladi hamda dastlab turli gazeta va jurnal muharririylarida, 1935-1938 yillarda esa Fanlar Qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan to umrining so'ngiga qadar Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining "O'zbek mumtoz adabiyoti" kafedrasida dotsent vazifasida xizmat qilib, malakali kadrlar yetishtirdi.

Sho'ro davrida u ta'qib va bosimlardan holi bo'lmagan. Jadid ajdodlarimiz kabi uning ham bir nechta asarlari taqiq ostiga olingan va hattoki uning o'zi qatag'onga uchragan. Shunga qaramay, u o'z ijodida milliy ruh, inson erki va ma'naviy poklik masalalarini ko'tarishda davom etdi. U umrining oxirigacha o'zbek xalqiga sadoqat bilan xizmat qildi. O'zbekiston esa uning uchun ikkinchi Vatanga aylandi.

Ma'lumki, ilk o'zbek milliy teatri 1914-yilda Toshkentda Abdulla Avloniy tomonidan tashkil etilgan «Turon» truppasi hisoblanadi. Maqsud Shayxzoda ham jadid bobokalonlarimiz singari o'z dramalari orqali xalqimizni tarixini eslashga, milliy g'urur va or-nomusni asrashga, ozodlik va adolat g'oyalarini qadrlashga da'vat etdi. U sahna asarlarini shunchaki badiiy to'qima sifatida emas, balki xalqni o'ylantiradigan, o'zligini anglashga undaydigan ma'naviy vosita sifatida ko'rdi.

Maqsud Shayxzoda 1960-yilda yozgan “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasid buyuk o‘zbek astronomi va ma’rifatparvar podshosi Mirzo Ulug‘bek obrazini o‘zbek adiblaridan birinchi bo‘lib yaratdi. U ushbu satrlarda Ulug‘bekning naqadar ilm-ma’rifat homiysi ekanligini, ilm-ma’rifat orqali jamiyatdagi tengsizlik va jaholatga barham berishni, mamlakatda adolat o‘rnatishni, xalqni azob-uqubat botqog‘idan olib chiqishni xohlashini shunday tasvirlaydi:

Mamlakatga urfon kerak, ilmu ma’rifat,
Boshboshdoqlik emas, idrok, nizom, farosat.
Shunday qilsa, borib-borib ravnaq topar yurt,
Birinchi gal orif bo‘lsa sultonlar o‘zi,
G‘aflat ketib ochiladi ulusning ko‘zi.

Uning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi o‘zbek adabiyotida tarixiy qahramon obrazini yangicha talqinda ko‘rsatgan asarlardan biridir. Ushbu asarda Shayxzoda Vatan erki, mustaqilligi uchun fidoyilarcha kurash olib borgan jasur sarkarda Jaloliddin Manguberdi obrazini badiiy gavdalandirdi. Bu asar orqali muallif milliy g‘urur va ozodlik g‘oyasini ilgari suradi. Bu esa jadidlar ruhiga yaqin qarashdir.

Shayxzoda bevosita jadid maktabida ta’lim olmagan bo‘lishi mumkin, ammo uning fikrlash tarzi, adabiyotga munosabati va millat taqdiriga befarq bo‘lmasligi uni jadidlar davomchisiga aylantiradi. Birinchidan, u adabiyotni xalqni tarbiyalash vositasi deb bildi. Bu jadidlarning asosiy tamoyillaridan biri edi. Ikkinchidan, u tarixiy mavzularga murojaat qilib, milliy o‘zlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

Uchinchidan, u og‘ir siyosiy sharoitda ham haqiqat va insoniylikni ulug‘lashdan voz kechmadi.

Jadidlar singari Shayxzoda ham millatning kelajagini ilm va ma’rifatda ko‘rdi. Uning ilmiy maqolalari, tarjimalari va pedagogik faoliyati ham buni tasdiqlaydi.

Maqsud Shayxzoda o‘zbek adabiyotida ko‘prik vazifasini bajargan ijodkordir. U jadidlar boshlab bergan ma’rifatparvarlik yo‘lini yangi tarixiy sharoitda davom ettirdi. Uning asarlarida milliy ruh, ozodlikka intilish va inson qadr-qimmati masalalari markaziy o‘rin tutadi.

Shu bois Maqsud Shayxzodani jadidlar davomchisi, ma’rifatparvarlik an‘analarini saqlab qolgan va rivojlantirgan buyuk adib sifatida baholash to‘g‘ri bo‘ladi. Uning ijodi bugun ham yosh avlodni millatni sevishta, tarixni anglashga va erkin fikrlashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Тафаккур» журналининг 2007 йил, 4-сони;
2. Зокиров, М., Шайхзода, М. 1969. Адабиёт. Адабий танкидий очерк.

3. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/47399/597b2912bedd8.pdf>
4. Мақсуд Шайхзода замондошлари хотирасида. 1983. Тошкент.
5. Maqsud Shayxzoda. Mirzo Ulug‘bek. “O‘qituvchi”. Toshkent. 1994 yil, 134-bet.
6. <https://arboblar.uz/uz/people/shejkhzade-maksud-magsumbekovich>
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadid_teatrlari
8. <https://mgjxu.uz/oz/menu/dzhadidys>
9. **“Maqsud Shayxzodaning adabiy merosi va zamonaviylik”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy – amaliy anjuman maqolalari to‘plami-Toshkent. 2020-118-b.